

INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA ISTIQBOLLARI

Namangan davlat pedagogika instituti

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi

G'aniyeva Iroda Erkinovna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Inklyuziv ta'lim, inklyuziv so'zining ma'nosi Maqolada yurtimiz ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta'limni yuksaltirish masalalari, xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining pedagogic va inklyuziv ta'limning imkoniyatlari hamda raqamli eshitish moslamasi haqida tanishib uning mohiyati tahlil qilingan*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, zamin fondi, autizm sindromi, koxlear implantatsiyasi.*

Hozirgi davrda Inklyuziv ta'lim degan ibora jamiyatimizga kirib keldi. Bu ibora zamirida judayam kata va keng qamrovli ma'no bor desak adashmagan bo'lamiz. Inklyuziv so'zi inglizcha inclusive so'zidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda birlashtiruvchi degan ma'noni anglatadi. Davlatimizda xar bir bola bilim olish maktabga borish huquqiga egadir. Konstitutsiyamizning 23 moddasida ham ko'rsatib o'tilgan. Inklyuziv ta'lim bu imkoniyati cheklangan bolalar ham har bir sog'lom bola singari ta'lim olish huquqiga egadir. Har bir o'quvchi kabi maktabda ya'ni sinfxonada bir xil sharoitda bilim olishidir.

Bu maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan maktabning ta'lim faoliyatiga, yo'nalishlariga, hamda imkoniyatlarga (jismoniy, intellektual) mos kelishi maqsadga muvofiqdir. Umumiy ta'lim dasturining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun nogiron o'quvchilarga maxsus sharoitlar yaratib berilishi kerak. Avvalo, biz mashg'ulotga yondashuvlarni individualizatsiya qilish, xususan, mashg'ulotni tashkil etish uchun shart-sharoitlarni tanlash, vazifalarni bajarish shaklini individuallashtirish va natijalarni taqdim etishning maqbul usullarini tanlash, natijalarni sifatli baholashga yondashish talab qilinadi Inklyuziv ta'lim tizimida

o'qituvchilarni ishlashga tayyorlashning bilim to'siqlaridan biri bu hatti-harakatlarida passiv rivojlanish va tuzatishga qaratilgan ishlarini amalga oshirishga qaratilgan asoslar to'g'risidagi bilimlardir. Ushbu bilimlar orqali alohida ehtiyojga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkil qilishda pedagogik faoliyatning dolzarb vakolatlarini shakllantirishdir. Shu munosabat bilan o'qituvchining psixologik bilimlari va pedagogik vakolatlarini oshirishga qaratilgan maxsus treninglarni tashkil etish alohida muhim rol o'ynaydi. Ushbu treninglarning vazifalariga pedagogik vakolatlarni motivatsiyali ravishda amalga oshirish kiradi.

O'quv faoliyatining mazmuni quyidagilarga qaratilgan: o'qituvchilar inklyuziya falsafasini qabul qilishlari; bolani kuzatish, uning xulq-atvori va ta'limidagi o'zgarishlarni qayd etish malakalarini oshirish; pedagogik muammolarni hal qilishda bolaning ota-onasi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish va bu o'zaro ta'sirni bola rivojlanishi uchun uning natijalarining maksimal sa Maxsus va yaxlit sinfda ta'lim (TPK) tomonidan tavsiya etilgan umumta'lim dasturlari va chuqur dinamik psixologik-pedagogik imtihon ma'lumotlari asosida sinf rahbarlari va Kengash a'zolari tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan individual yo'naltirilgan o'quv rejalari va dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Nogiron bolani rivojlanishi uchun uni qayta ijtimoiylashtirish jarayonlariga qo'shilishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish kerak. Bunday muhit o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini birlashtirishga, shuningdek, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishda psixologik yordam ko'rsatishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limda ishlash uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi. - o'qitishning moslashuvchan shakllariga, interfaol o'qitish uslublariga ega bo'lish; - bilish faoliyati mustaqilligini rag'batlantirish qobiliyati; - jamoada ishlash qobiliyati, alohida ehtiyojli bolalar ta'limi uchun psixologikpedagogik yordamni yaratish uchun mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lish;maradorligi bilan tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarini sifatini yaxshilash to'g'risida qarori mavjuddir. Qarorda imkoniyati cheklangan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash:

imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

imkoniyati cheklangan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun bo'ladigan uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich, boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (pedagog-defektolog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;

jamoatchilik o'rtasida imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

imkoniyati cheklangan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash;

imkoniyati cheklangan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishiga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

kabilar ko'rsatib o'tilgan.

Yakka tartibda uy sharoitda bilim olgandan ko'ra Inklyuziv ta'lim ya'ni maktabda har bir bola singari bilim olish o'sha imkoniyati cheklangan bola uchun bu o'zgacha ta'sir o'tkazadi. Boshqa sog'lom bolalarni ko'radi ulardek o'zini

tutishga xarakat qiladi, kerak bo'lsa ularga o'xshashga xarakat qiladi, dunyo qarashi kengayadi, fikrlash doirasi o'sadi shaxs bo'lib shakllanishida ancha foydalidir. Inklyuziv ta'limdan ko'zlangan maqsad shundan iboratki nuqsoni bor bolajonlar sog'lom turmush tarzida o'qib o'rganib kelajakda birovga qaram bo'lmagan xolda o'zi mustaqil bo'la olishiga yordam beradi. Bu holat bolajonlarga dadil qadam tashlashiga yordam bo'ladi. Ular o'zlaridan uyalmasliklarini ular ham har bir bola kabi o'z yurtiga vataniga oilasiga do'stlariga kerakli inson ekanliklariga ishonchlari komil bo'lib ulg'ayadilar. Jamiyatga kerakli shaxs bo'lish naqadar buyuk baxt ekanini his qiladilar, qolaversa bu boshqa bolalarga ham oddiy holdek ularga boshqacha nigox bilan qaramaslik kerakligini ular bilan ham do'st bo'lish mumkinligini bilib o'rganib o'sishadi. Bu albatta quvonchli holat chunki o'sha nuqsoni bor bola ham o'zini oddiy bolalardek his qiladi. Masalan: Autizm sindromli bolalar –bu ruhiy rivojlanishdan orqada qolish nutqning buzilishi atrofidagi insonlar bilan muloqotga kirisha olmaslik xissiy aloqalarini buzilishidir. Bu tashxisli bola bog'cha maktabda qiynaladi chunki u oddiy bolalarga o'xshamaydi tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olmaydi. Dars jarayonlarida qiynaladi. Shunda inklyuziv ta'lim asnosida ta'lim berib borilsa Autizm tashxisi qo'yilgan o'quvchi ham sog'lom bolalar singari maktab dargoxida qiynalmay bilim oladi deb o'ylayman. Chunki bu bola darslarga tushina olmay qolgan vaqtda o'qituvchi unga chuqurroq kengroq qilib o'rgatishi. Uni bilim olishiga tengdoshlari bilan muloqotiga hayotda to'g'ri qadam tashlashiga hissa qo'shgan bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bor bolajonlar uchun ham juda keng va katta imkoniyatlar mavjuddir. Zamin fondi orqali bunday bolajonlarga yana eshitish imkoniyati taqdim etilayapti. Zamin fondi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tsam.”Zamin “ Xalqaro jamoat fondi. Fondning maqsadi aholi turmush tarzi hamda rivojlanishiga ko'maklashish. Fond 3 yo'nalishga asoslangan:

atrof-muhit

ijtimoiy soha

xayriya tadbirlari.

Fondning o'zbek tiliga tarjimasini imkoniyat degan ma'noni anglatarkan. Yo'nalishlardan biri ijtimoiy soha orqali koxlear implantatsiya operatsiyasi va zamonaviy raqamli eshitish moslamasi berildi. Bu zaif eshituvchi bolalar uchun katta imkoniyatdir. Zamonaviy raqamli eshitish moslamasining ahamiyati shundaki inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchi apparatida sinf xonasining xoxlagan yeridan joy olishi va o'zini xotirjam xis qilishi mumkin. Bunda ovozni kuchaytirib berishning imkonini beruvchi mikrafon ham mavjud buni o'qituvchi cho'ntak qismiga ilib oladi va u bolaning aparati bilan bog'langan bo'ladi. O'qituvchining ovozi mikrafon orqali o'quvchiga yaxshi aniq va ravon eshitiladi. Bu bola uchun qulaylikdir. Bunday o'quvchilar bilan xar xil turdagi nafas mashqlari bajarilishi kerak bu mashqlar ham qiziqarli ham foydalidir. Yana ko'proq diktant yozdirish kerak bo'ladi bolaning eshitish qobilyatini kuchaytirish uchun. Xotira mashqlarini bajarib turilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday bolalarda ko'z orqali ko'rib o'rganish qobilyati kuchli shuning uchun bunday o'quvchilarga qo'shimcha tarzda xunar ham o'rgatish kerak bo'ladi deb o'ylayman chunki xunar bunday o'quvchining kelajagi uchun foydali. Masalan o'quvchilar uchun texnologik ta'lim fanidan o'tiladigan darslar foydalidir bunda o'quvchilar xunarga o'rgatiladi. Xalqimizda ham xunarli kishi xor bo'lmas degan naql bor. Inkluziv ta'limda bolalar shunday sog'lom bolalardek maktabda ko'p hamda foydali narsalarni o'rganadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'quvchining hayotiga nurdek kirib keladi. Imkoniyatlar eshiklarini ochadi. Eng asosiysi bilim oladi katta hayotga tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Турсунова Ш. Б. Педагогик компетентлик ва уни самарали ривожлантириш //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 377-381.
- 2.Абдуллаев С. Х., Турсунова Ш. Б. Технологик таълим сифатини оширишда бўлажак ўқитувчи касбий компетенциясининг ўрни //Ижодкор ўқитувчи. Тошкент. – 2021. – С. 347-355.

- 3.Турсунова Ш. Б. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 824-830.
- 4.Bakhromovna T. S. Characteristics of the Teacher of the Future Technological Education //JournalNX. – Т. 7. – №. 05. – С. 170-173.
- 5.Казакбаева С. И., Турсунова Ш. Б., Курбонов А. А. КОМПЕТЕНЦИЯ УЧИТЕЛЯ ПРИ ПОВЫШЕНИИ РЕЗУЛЬТАТОВ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ //ББК 1 Е91. – 2018. – С. 215.